

# Finlandiyada uzluksiz ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash tizimi



## Odil Qo'ysinov

Xalqaro Nordik universiteti prorektori

ORCID: 0009-0001-6308-2600

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10407505>

### Kalit so'zlar

*Xorijiy tajriba, xalqaro ta'lim, Finlandiya ta'lim tizimi, o'qituvchilar ta'limi, o'quv dastur, fan, didaktika, samaradorlik, tadqiqot, natija.*



## Feruza Xamroyeva

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

## Annotatsiya

Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilar ta'limi, Finlandiyada o'qituvchilar ta'limining tarixiy asoslari va hozir amal qilayotgan o'qituvchilar ta'limining o'quv dasturi hamda uning asosiy xususiyatlari, tamoyillari to'g'risida ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Finlandiya ta'limi bilan O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili olib borilgan.

## Kirish

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimizda nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ilg'or tajribalari muhim ahamiyatga ega.

Chunki, o'qituvchi ilm-ma'rifatli kadrlar tayyorlash, o'quvchilarni turli sohalariga yo'naltirish, uzluksiz ta'lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod

kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish, ta'lim jarayonini yangilash, o'qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo'llashda ilm-ma'rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Shu boisdan, jahon tajribasini o'rganish va xalqaro ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Butun dunyo mamlakatlari o'qituvchilari va siyosatchilarning diqqat markazida bo'lgan ta'lim Finlandiya ta'lim tizimidir. O'n yildan ortiq vaqt davomida Finlandiyaning 15 yoshli bolalari OECD xalqaro baholash dasturida (PISA) doimiy ravishda eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Finlandiyaning muvaffaqiyati bu –

o'qituvchilar. O'qituvchilarning yuqori sifatli mashg'ulotlarni olib borishi uchun quyidagi tamoyillar asosiy omildir:

1. Maqomi va mustaqilligi.
2. Maqsadli ravishda tenglikka yo'naldirilgan izchil ta'lim siyosati.
3. Maktablarning markazlashmagan nazoratidir.

## Asosiy qism

Finlandiya ta'lim tizimi uchun eng muhim davr 1967-1974-yillar oralig'idagi davr bo'lgan. 1967-yilda Finlandiya parlamentida ilgari surilgan takliflarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, 11-12 yoshdagi o'quvchilarning o'quv yoki kasbiy ta'limga bo'lgan "oqimi" umumiy keng qamrovli ta'limga o'tkazildi, qaror qabul qilish vakolatlari markazlashtirilmadi. Barcha o'qituvchilar uchun universitetlarda (bolalar bog'chasidan tashqari) ta'lim olish talab qilindi. Maktablarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash muntazam yo'lga qo'yildi.

Hozirgi vaqtda Finlandiyada umumiy, kasbiy va oliy ta'lim barcha fuqarolarga "bepul" beriladi va kattalar ta'limi ham qisman qo'llab-quvvatlanadi. Umumiy va kasb-hunar ta'limi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi hamda davlat tomonidan ham, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ham moliyalashtiriladi. Yigirmata universitet – oliy o'quv yurtlari (shundan o'ntasi pedagogik ta'lim) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Maktablarning o'quv dasturlarini tuzish huquqi va mas'uliyati ta'limga bog'liq provayderlar – asosan mahalliy munitsipalitetlar va maktablardir.

Qonunchilikka ko'ra, ta'lim beruvchilar o'quv dasturini mahalliy sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mas'uliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda "maktabning ish muhiti, mahalliy qiymat tanlovi va maxsus resurslar"ni hisobga olgan holda ishlab chiqishlari shart. U nafaqat "umumiy ta'limning yuqori standartlari, balki butun jamiyatning birgalikda belgilangan maqsad va tartiblariga sodiqligi"ni ta'minlaydigan tarzda amalga oshiriladi.

Finlandiyada o'qituvchilar uchun ta'lim dasturini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimining yana bir muhim xususiyati ta'lim tizimidagi ishonch va hamkorlik madaniyatidir. Ta'lim tizimini tartibsiz nazorat qilish va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga kuchli e'tibor mavjud emas. Faqat o'n ikki yillik maktabning oxirgi imtihoni mavjud xolos.

Finlandiya ta'lim tizimining hozirgi tuzilishi quyidagicha:

**Maktabgacha ta'lim** (6 yosh va undan past): 2001-yildan boshlab barcha oilalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olish imkoniyati berildi. Natijada taxminan 96% bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga borishiga erishildi. Maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog-o'qituvchilari kamida bakalavr darajasiga ega bo'lishi shart qilindi.

**Umum o'rta ta'lim maktabi:** "Asosiy ta'lim" deb ham ataladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Boshlang'ich bosqich (1-6-sinflar): O'quvchilarga ta'lim berish uchun mutaxassisligi bo'yicha kamida magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "sinf o'qituvchilari" zimmasiga yuklanadi.

2. O'rta ta'limning quyi darajasi (7-9-sinflar): O'quvchilarga bir yoki ikkita fan (shuningdek, pedagogika) bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassisligi bo'yicha kamida magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "fan o'qituvchilari" dars beradilar.

Asosiy ta'lim davrida barcha moddiy resurslar, oziq-ovqat va transport davlat tomonidan ta'minlanadi. O'quvchilarning yarmidan ozrog'i 9-12 sinflar uchun "*Kasb-hunar maktablari*"ni, qolganlari esa o'rta maktablarni tanlaydilar.

**Yuqori o'rta maktab** (10-12-sinflar): O'quvchini oliy (akademik) ta'limga tayyorlaydi. O'rta maktabning oxirida o'quvchilar to'rtta fan bo'yicha (qolganlari ixtiyoriy) yagona rasmiy "imtihon"ni topshiradilar. Bu ularga o'qishga kirish to'g'risidagi guvohnoma va oliy ta'lim olish huquqini beradi.

**Kasb-hunar maktablari:** Yuqori o'rta ta'lim kabi, umumta'lim maktablari o'quvchilari qabul qilinadi va ularni maktabdan keyin darhol ishga tayyorlaydi. Boshqa mamlakatlardagi kasb-hunar maktablaridan farqli o'laroq, ular asosan "shogirdlik" maqomida tashkil etiladi. Biroq, ko'plab o'quvchilar bakalavr darajasini olish uchun texnik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga kirishni davom ettiradilar. Kasb-hunar maktablarining o'qituvchilari texnik oliy o'quv yurtlarida ixtisoslashtirilgan o'quv reja bo'yicha tayyorlanadi.

Finlandiya maktablaridagi o'qituvchilarni ma'lumoti va ish sohasi bo'yicha maktabgacha ta'lim o'qituvchisi, hunarmandchilik va texnologiya fani o'qituvchisi, musiqa o'qituvchisi va boshqa toifalarga bo'lish mumkin. Biroq, har bir toifadagi o'qituvchilar turli o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi.

1970-yilda "O'qituvchilar ta'limi to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan

Finlandiya ta'limi muvaffaqiyatida asosiy o'rinni egallagan katta islohot amalga oshirildi. Yangi tashkil etilgan umumta'lim maktablari uchun ham, o'rta maktablar uchun ham o'qituvchilar tayyorlash oliy o'quv yurtlariga topshirildi.

Ko'pchilik universitetlar ikki bo'limga bo'lingan: umumiy ilmiy va fan sohasidagi ta'lim va pedagogik ta'limi yo'nalishlari. Birinchisi: umumiy ilmiy va fan ta'lim sohasida tadqiqot olib borish va rejalashtirishdagi muammolar ustida ishlash asosiy yo'nalish sifatida berilgan bo'lsa, ikkinchisi: pedagogik ta'limiga, ya'ni o'qitish va o'qituvchilar ta'limi sohasidagi tadqiqotlarga e'tibor qaratildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning boshlang'ich ta'limi barcha o'qituvchilar uchun umumiy va keng malakaga ega bo'lishi talab etiladi. Bu umumiy asos keyinchalik malaka oshirishda moslashuvchan tarzda to'ldirilishi mumkin. Pedagogika fanini shunday rivojlantirish kerakki, o'qituvchilar o'qituvchi bo'lishga tayyor bo'lishlari va o'z o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional o'sishiga hissa qo'shishlari lozim. O'qituvchilar o'z ishiga eng so'nggi tadqiqotlarga asoslangan pedagogik, optimistik munosabatda bo'lishlari hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishi, shuningdek, o'quv fanlari va pedagogik fanlar yanada muvaffaqiyatli birlashtirilishi kerak.


O'qituvchi ta'limi jamiyat va ta'lim siyosatini o'rganishdan iborat.

Bugungi kunda Finlandiyada o'qituvchilar ta'limining kuchli tadqiqotga yo'naltirilganligi va hamkorligini ko'rishimiz mumkin. 1979-yilda o'tkazilgan islohotdan so'ng, umumta'lim maktablari va o'rta maktab o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan minimal malaka taxminan besh yillik qattiq o'quv va amaliy ishlarni talab qiladigan magistr darajasi sifatida belgilandi.

Bu uchta asosiy maqsadga xizmat qildi: birinchisi, boshlang'ich va o'rta maktab ta'limini birlashtirib, ularning ikkalasiga ham "umumiy o'zak" berdi; ikkinchisi, boshlang'ich darajadagi o'qituvchilar yuqori akademik standartlarga javob berdi; uchinchisi, yuqori hamda o'rta maktab o'qituvchilari ham pedagogik fanlar bo'yicha tayyorlandi.

Ikki bosqichli daraja tizimiga o'tilib, endi barcha o'qituvchilar 3 yillik bakalavriat va ikki yillik magistr darajasiga ega bo'lishlari kerak bo'ldi (bog'cha o'qituvchilaridan tashqari – faqat bakalavr darajasi kerak).

Sinf o'qituvchilari: Bu o'qituvchilar umumta'lim maktablarining quyi sinflari (1-6) uchun mas'uldirlar. Ular odatda o'zlari shug'ullanadigan sinfga tegishli barcha fanlarni o'rgatadi va o'quvchilarning "butun shaxsiy rivojlanishi" uchun ham javobgardir.



Sinf o'qituvchisi magistraturaning tarkibi: 3+2 yil

O'quvchilar sinfga ko'tarilganda, o'qituvchilar ular bilan birga harakat qilishadi. Fan o'qituvchilari umumta'lim maktablarining yuqori bosqichlarida (7-9) va yuqori o'rta maktablarda dars berishadi. Ular odatda bir yoki ikkita fan bo'yicha ixtisoslashgan va faqat shularni o'rgatishadi.



Ikkala toifadagi o'qituvchilarning o'qituvchilarni tayyorlash o'quv dasturlaridagi farqlariga qaramay, quyidagi keng guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Akademik fanlar;
2. Pedagogik tadqiqotlar;
3. Hamkorlik;
4. Til va AKT tadqiqotlari;
5. Shaxsiy o'quv reja;
6. Ixtiyoriy tadqiqotlar.

O'qituvchilar uchun o'quv dasturining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch. Finlandiya pedagogik ta'limining zamirida barcha darajadagi o'qituvchilar nafaqat mustaqil mutaxassislar balki, "o'z sohalari bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak", - degan ishonch yotadi va turli xil muammolarni (pedagogik, ma'muriy, oila yoki jamoa bilan bog'liq, hatto mahalliy sanoat bilan aloqalar) mustaqil ravishda va o'z hamkasblari hamda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda yechimini topadi. O'qituvchida bu fazilatlarining rivojlanishi, bir tomondan, o'qituvchilik kasbini Finlandiyada eng ko'p talab qilinadigan va nufuzli kasblardan biriga aylantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'murlar va siyosatchilarga o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilarni baholash vazifalarini o'qituvchilarga deyarli

to'liq "topshirish" imkonini beradigan ishonch asosini tashkil qildi.

O'qituvchilar va maktab direktorlari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik ta'lim ularga o'quv dasturi bo'yicha yaxshi rivojlangan bilim va rejalashtirish ko'nikmalarini beradi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini loyihalash kasbiy rivojlanishni tizimli, nazariy jihatdan takomillashtirishga yordam beradi.

2. Tadqiqotga asoslangan yondashuv. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch tamoyili bilan bog'liq bo'lib, jiddiy tadqiqotga asoslangan yondashuvni qabul qilish tamoyilidir. Ushbu tamoyil ortida turgan ikkita asosiy maqsadni ajratib ko'rsatish muhimdir.

Birinchisi, bo'lajak o'qituvchilarga o'z faoliyat sohasidagi so'nggi tadqiqotlardan xabardor bo'lish, shuningdek, yangi bilimlarni qo'shish imkonini beradi. Shuningdek, ikkinchi eng katta maqsad, o'qituvchilarda o'z e'tiqodlari va amaliyotlari haqida fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Bo'lajak fan o'qituvchilari uchun tadqiqotga asoslangan pedagogik ta'limning maqsadi: *"O'qituvchilarga mustaqil fikrlash va mantiqiy dalillar orqali amalda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga yordam beradigan ta'lim berishdir"*.

3. Nazariya va amaliyot bo'yicha integratsiya. Finlandiya pedagogik ta'limining uchinchi belgilovchi tamoyili - bu o'qish jarayonida nazariy jihatlarini amaliyot bilan mustahkam integratsiya qilishdir.

**Sinf va fan o'qituvchilarining o'quv dasturlari hamda ularning asosiy xususiyatlari.**

Finlandiya o'qituvchilari uchun o'quv dasturining umumiy yadrosi asosan "pedagogik tadqiqotlar"dan iborat. 60 kredit (ya'ni bir o'quv yiliga yaqin) bo'lgan ushbu fanlar pedagogik bilim va kompetensiyalarni olish uchun (qonun hujjatlariga muvofiq) majburiy hisoblanadi. Bu darajani magistratura bilan parallel ravishda yoki uni tugatgandan keyin ham olish mumkin. (Ammo, odatda, sinf o'qituvchilari uchun pedagogika fanlari kurs davomida o'qitiladi; fan o'qituvchilari uchun esa 3-kursda yoki undan keyin boshlanadi). U asosan didaktikaga urg'u berilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogika fanining maqsadi: pedagogik o'zaro ta'sirni o'rgatish va baholashni o'rganish imkoniyatlarini yaratishdir. Shuningdek, o'quvchilar, boshqa fan o'qituvchilari, ota-onalar va manfaatdor ijtimoiy jamiyat vakillari bilan qanday hamkorlik qilishni o'rganadilar. (6)Til va muloqot kurslari odatda ona tili va chet tillari

kurslariga bo'linadi.

Birinchisi og'zaki muloqot, nutq va madaniyat, sinfdagi muloqot, nutq ta'limi didaktikasi, yozma muloqot va akademik yozish ko'nikmalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisining maqsadi: talabalarga xorijiy adabiyotlar (ayniqsa, ilmiy maqolalar, kitoblar va h.k.) bilan tanishish imkonini beradigan yetarli malakani ta'minlashdir. Xuddi shunday, AKT bo'yicha tadqiqotlar ham besh yil davomida kursning uzluksiz qismi hisoblanadi, ayniqsa, tadqiqot, o'qitish va hamkorlik uchun AKTdan foydalanishga urg'u beriladi.

Finlandiya universitetida o'qish o'qituvchilarning ta'lim dasturlarini o'z ichiga olgan shaxsiy rejani tayyorlash majburiy holga keltirildi.

Sinf o'qituvchilari uchun asosiy o'rganish mavzusi "ta'limni tizimli o'rganish - o'qitish, tadqiqot va didaktikaga e'tibor qaratish"dir. Shunday qilib, sinf o'qituvchilari ta'limining o'quv rejasi yuqorida tavsiflangan umumiy fanlardan tashqari quyidagi uchta fan guruhidan iborat:

1. Ta'lim fanlari. Asosiy kurs sifatida ta'lim fanlari besh yil davomida o'tiladi va uchta ierarxik darajaga bo'linadi: umumiy ta'lim, oraliq tadqiqotlar va ilg'or tadqiqotlar.

2. O'quv loyihasi. Ikki qismdan iborat: birinchisida tadqiqot mavzulari, nazariy asoslar va taklif etilayotgan tadqiqot usullari, adabiyotlar so'rovi va boshqalar taqdim etiladi; ikkinchisida esa dastlabki xulosalar va hisobot loyihasi taqdim etiladi, ular yanada takomillashtiriladi. Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot usullari bo'yicha kurs o'quv loyihasining rivojlanishi bilan birga keladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi - sinf o'qituvchilari ta'limining muhim tarkibiy qismi odatda sinf mavzulari (yoki umumiy ta'lim) bilan bog'liq.

3. Amaliy mashg'ulotlar. Bir qator amaliyotlardan iborat (kirish, asosiy amaliyot, dala amaliyoti va pedagogik amaliyot). Kirish va asosiy amaliyot odatda universitet huzuridagi maxsus tayyorlangan o'qituvchilarga ega bo'lgan o'quv maktablarida o'tkazilishi mumkin, ular o'z talabalariga dars berayotganda ham talaba-o'qituvchilarga ustozlik qila oladilar. Dala va o'qitish amaliyoti ko'pincha shahar maktablarida amalga oshiriladi. Tengdoshlarni baholash, fikr-mulohazalar va guruh muhokamalari amaliy tadqiqotlarda juda muhim rol o'ynaydi.

### **Didaktik fanlar (ko'p tarmoqli tadqiqotlar)**

Sinf o'qituvchilari barcha fanlar (1-6 sinflar) uchun mas'ul bo'lganligi sababli,

ushbu kursning maqsadi o'quvchilarning fanlar bo'yicha yetarli ko'nikmalar va ular bilan bog'liq asosiy didaktik ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun sinf o'qituvchisi sifatida ishlashlari mumkin. Ona tili va matematikani o'rganish barcha talabalar uchun majburiydir. Sinf o'qituvchisi - talabalar bir yoki ikkita "kichik" fanlarni tanlash imkoniyatiga ega. O'quv fanlaridan (matematika fani va boshqalar) tashqari ular AKT, boshlang'ich ta'lim, musiqa kabi fanlarni ham tanlashlari mumkin.

### **Fan o'qituvchilarining o'quv dasturi.**

Sinf o'qituvchilarining va fan o'qituvchilari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, fan o'qituvchilari o'zlari o'qitadigan fan (matematika yoki geografiya) bo'yicha mutaxassisdir.

Talabalar odatda o'z qiziqishlari yuqori bo'lgan universitet fakultetlariga hujjat topshirishadi. Agar talabalar bilimi ikkinchi kursda o'qishning belgilangan mezonlariga javob bersa, ularga pedagogik ta'lim yo'nalishlarida o'qish imkoniyati taklif etiladi. Buni tanlaganlar uchinchi kursdan pedagogika fanidan bitta kursni (umumiy asosiy, 60 AKTS) va boshqa maktab fanlaridan kamida bittasini tanlab o'qishni boshlaydilar. Buning natijasida ko'pchilik fan o'qituvchilari odatda kamida ikkita fandan dars berishlari mumkin.

## **Qiyosiy tahlil**

Finlandiya va O'zbekistondagi o'qituvchilar ta'limini qisqacha qiyosiy tahlil qilsak quyidagi farqlarni ko'rish mumkin:

1. Finlandiyada maktabgacha ta'lim tashkiloti (bog'cha)larida ishlash uchun bakalavr darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun Pedagogika universitetining magistratura bo'limini tugatgan bo'lishi shart. Oliy ta'lim muassasasini tugatmagan talaba ta'lim muassasalarida ta'lim berish huquqiga ega emas. Mamlakatimiz maktablarida o'qituvchilik qilayotgan kadrlarimizning aksariyati bakalavr darajasiga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilot (bog'cha)larida esa o'rta maxsus diplomiga ega kadrlarni ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini bitirmaganlarga ham maktablarda dars berishiga ruxsat berilgan.

2. Finlandiya ta'lim tizimi kuchli ishonch va ochiqlik asosida qurilgan. O'qituvchilar ta'lim sifati va samaradorligiga mas'ul etib belgilanadi va ularga ishonch bildiriladi, faoliyati nazorat qilinmaydi. Bizda o'qituvchining ta'lim berishdagi faoliyati, dars sifat va samaradorligi doimiy nazorat ostiga

olingan. Ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan olib boriladigan dars tahlillari o'qituvchi faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

3. Finlandiyada o'qituvchilar faoliyati ta'limga oid so'nggi tadqiqotlarga qaratilgan. O'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida mustaqil ishlaydi, ilmiy izlanishlar olib boradi. Bizning maktablarimizda ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan o'qituvchilar sanoqlidir.

4. Finlandiyada ta'lim jarayoning nazariy jihatlarini amaliyot bilan qattiq integratsiyalashgan. Bizning maktablarimizda nazariy bilim kuchli beriladi, ammo o'qituvchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash jarayoni sust boradi.

5. Finlandiya maktabgacha, maktab va oliy ta'limidagi islohotlar asoschisi o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega. Finlandiya ta'lim tizimiga Milliy dastur ko'rsatma sifatida beriladi. Mazmun-mohiyatini boyitish, o'zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Afsuski, bizda o'qituvchilar tayyor dastur asosida dars o'tishadi. O'qituvchilar dasturda ko'rsatilgan mavzulardan chetga chiqmagan holda ta'lim berishadi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta'limining muvaffaqiyati ortida tenglik va izchil, birgalikdagi sa'y-harakatlar yotadi. Hozirgi ta'lim tizimining ba'zi asosiy xususiyatlari, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o'qituvchilar ta'limidagi islohotlar Finlandiya ta'limi rivojining kalitidir. Bu islohotlardan biri "milliylashtirilgan,

standartlashtirilgan" testlarni bekor qilish edi. "Fin maktablari o'quvchilar muvaffaqiyatini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanmaydi. Buning uchta asosiy sababi bor.

Birinchi, baholash amaliyoti milliy o'quv dasturida yaxshi asoslangan bo'lsa-da, Finlandiyada ta'lim siyosati maktablar faoliyatining muhim qismi sifatida individual ta'lim va ijodkorlikka yuqori ustuvorlik beradi. Shuning uchun har bir o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati statistik ko'rsatkichlarga qaraganda ko'proq uning individual taraqqiyoti va qobiliyatiga qarab baholanadi. Ikkinchi, ta'limni ishlab chiquvchilar o'quv dasturlari, o'qitish va maktablarda test o'tkazish emas, balki, o'qituvchilarning amaliyotini kuchaytirishi kerakligini ta'kidlaydilar. Finlandiya maktablarida o'quvchilar bilimni baholash o'quv dasturi va o'quv jarayoniga kiritilgan bo'lib, butun o'quv yili davomida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Uchinchi, Finlandiyada o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini aniqlash tashqi baholovchilarning emas, maktabning mas'uliyati sifatida qaraladi. Demak, bizning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarga bo'lgan ishonchni orttirish, pedagoqlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini oshirish juda muhimdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chung, J. va Tsuruta, Y. (2010). Finlyandiyaning PISAdagi muvaffaqiyati sabablarini tekshirish. Taqqoslang: Jurnal Of Qiyosiy va xalqaro Ta'lim , 40(4), 551-553.
2. Anders, J. (2011-yil, 12-dekabr). Finlyandiyaning qiziqarli maktab islohoti modeli.
3. Xankok, L. (2011-yil, sentyabr). Nima uchun Finlyandiya maktablari muvaffaqiyatli?
4. Dobbins, M. va Martens, K. (2012). «Finlandiya»ga ta'limga yondashuvmi? fransuz Ta'lim Siyosat PISAdan keyin. Jurnal Of Ta'lim Siyosat, 27(1), 23-43.
5. Niemi, H. va Jakkus-Sixvonen, R. O'rta maktab o'qituvchilarining o'qituvchilar ta'limi bo'yicha o'quv dasturi.
6. Kansanen, P., Finlyandiya o'qituvchilar ta'limi: joriy modellar va yangi rivojlanish.
7. Asunta, T., Finlyandiya o'qituvchilar ta'limini rivojlantirish: malaka oshirish va o'qitish.
8. Kupiainen, S., (2008). Finlyandiya ta'lim tizimi va PISA.
9. Sahlberg, P., (2010). Finlyandiya muvaffaqiyatining siri: o'qituvchilarni tarbiyalash . Stenford Markaz uchun Imkoniyat ichida Ta'lim.
10. Laukkanen, R., (2006) Finlyandiyaning barcha uchun yuqori darajadagi ta'lim strategiyasi.
11. Куйсинов О.А., Уразова М.Б. О сущности и роли проектировочной деятельности в профессиональном развитии учителя. SCIENCE AND WORLD. International scientific journal. № 5 (21), 2015, Vol.II. Наука и мир. Международный научный журнал, № 5(21),2015, Том 2. Импакт фактор журнала «Наука и мир» - 0,325 (Global Impact Factor 2013, Australia).
12. Kuysinov O.A., A. Nosirov, Sh.Abduraimov, A. Sodikova, K.Kutlimuratov, K.Mamajonova. New Uzbekistan. The value of Membership in the Continuous Education System «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION» Scopus Journal. 3209-3225 p. <https://www.internationaljournalofspecialeducation.com/submission/index.php/ijse/article/view/515> ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.